

**Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Farg'ona filiali muassisligida  
tashkil etilgan "Al-Farg'oniy avlodlari" elektron ilmiy jurnalining (ISSN:  
2181-4252) 2024-yil 3-soniga maqolalar qabul qilish bo'yicha**

**AXBOROT XATI**

Taqdim etilayotgan maqolani rasmiylashtirish tartibi:

1. Maqola hajmi 6 betdan 15 betgacha, 1 intervalda (chapdan 3 sm, yuqori va pastdan 2 sm, o'ng tomondan 1,5 sm, varaq bichimi A4 formatda, 210x297mm), Microsoft Word muharririda, matnlar Times New Roman, 14 o'lchamli shriftda. Sahifa boshlanishida mavzu bosh harflarda qoraytirilib, varaqning o'rtasiga yoziladi, keyingi qatorlarga muallif(lar)ning familiyasi, ismi, sharifi, ilmiy darajasi yoki ilmiy unvoni, ish joyi, emaili yoziladi. Undan keyin annotatsiya, kalit so'zlar yoziladi. Annotatsiya taxminan 100 ta so'zdan ko'p bo'lmasligi tavsiya etiladi. Kalit so'zlar 3 tadan kam emas va 10 tadan ko'p bo'lmasligi tavsiya etiladi. Maqola sarlavhasi, muallif ma'lumotlari, annotatsiya, kalit so'zlar 3 tilda (o'zbek, rus, ingliz) yozilishi kerak.

2. Maqolalar IMRAD talabida bo'lishi va unda Kirish, Adabiyotlar tahlili va metodologiya, Natijalar, Xulosa qismlari bo'lishligi tavsiya etiladi. Maqolada albatta ilmiy yangiligi bo'lgan ma'lumotlar faktlar, raqamlar, formulalar bilan keltirilishi maqsadga muvofiq.

3. Maqola ichidagi havolalar "[1]" kabi tartibda belgilanadi. Maqola so'ngida foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati foydalanish ketma-ketligi bo'yicha yozilishi kerak. Foydalanilgan adabiyotlarda o'z-o'ziga iqtiboslik 20%dan kam bo'lishligi tavsiya etiladi.

4. Maqolalar o'zbek, rus va ingliz tillarida qabul qilinadi.

5. Maqolalar antiplagiat dasturida tekshiriladi. Originallik 75% dan kam bo'lmasligi kerak.

5. Materiallar **2024-yil 10-oktabr** kuniga qadar <https://al-fargoniy.uz/> orqali qabul qilinadi. Material jo'natish uchun saytda ro'yxatdan o'tish talab qilinadi. Saytga yuklanuvchi maqola uchun ekspert xulosa ham qo'shib yuklanadi. **Yuklangan maqola tahrir hay'ati va rezentlar tomonidan ko'rib chiqilib, ijobiy xulosa berilgandan so'ng, to'lov amalga oshirilishi va to'lov qog'ozi ilova qilinishi lozim.**

To'lov qabul qilishning so'nggi kuni **15-oktabr 2024-yil**.

Materiallar **20-oktabrdan** keyin saytda e'lon qilinadi. Tahririyat maqolalarni tanlab olish huquqiga ega.

6. Maqola badali to'lovi har bir material uchun va ushbu son uchun (~~340 000 so'm~~ **1 BHM**) **238 000 so'm (0.7 BHM)** qilib belgilangan. To'lov Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Farg'ona filiali hisob raqamiga to'lanadi.

To'lov rekvizitlari:

h/r: **400110860304017094100078001**

INN: **205 765 265**

Izohi: **TATU FF "Al-Farg'oniy avlodlari" elektron ilmiy jurnali 2024-yil 3-son uchun maqola badali**

7. Talablarga javob bermaydigan maqolalar qabul qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi.

Tel: +998999980142,

Telegram-bot: [https://t.me/al\\_fargoniy\\_avlodlari\\_bot](https://t.me/al_fargoniy_avlodlari_bot)

Telegram kanal: [https://t.me/al\\_fargoniy\\_avlodlar](https://t.me/al_fargoniy_avlodlar)

Sayt: <https://al-fargoniy.uz/>

E-mail: [info@al-fargoniy.uz](mailto:info@al-fargoniy.uz)



